ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEKISTON
2021

№ 2/2026




# ADPI
# Ilmiy xabarnomasi

I am Sorry !!!!

# ADPI
# Ilmiy xabarnomasi

# АГПИ
# Научный вестник

2/2026

ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

# ADPI Ilmiy xabarnomasi

## № 2 2026 aprel

### Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda № 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida indeksialanadi.

📌 Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida https://eduservis.uz sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma_bot

**Electron manzil:** eduservis@gmail.com

# 2/2

-----------------------------------------

**BOSH MUHARRIR:**

**B.M. Rasulov-** tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul muharrir:**

**B.A. Sirojidinov-** biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**TAHRIR KENGASHI**

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi
**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor
**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
**A.E. Zaynabiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor
**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**M.V. Xalimova-** psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
**Sh.J. Yusupova** - pedagogika fanlari doktori, professor
**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**M.A. Tojiboyeva** – filologiya fanlari doktori, professor
**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor
**A.G. G'aniyev-** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**M.K. Pozilov** -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**A.Xakimov-** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
**M.T.Parpiyev-** falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
**A.A. Zaparov**- texnika fanlari nomzodi, professor
**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor
**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor
**L.A. Muxammadjonova-** falsafa fanlari nomzodi, professor
**Sh.A. Xasanov -** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**X.T. Komilova** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**M.Sh. Alimova -** siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Q. Ibaybullayev-** falsafa fanlari nomzodi, dotsent
**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**O'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**K.S. Karimov –** tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**M.J. Abduraxmonova** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**J.B. Qoraboyev-** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**N.T. Mo'ydinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**D.A. Sobirova-** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**G'.Sh. G'ulomov-** biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**L.S. Yunusov** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**N.S. Yaqubov-** tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD),dotsent
**M.I. O'rinboyev-** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**U.Sh. Uktamov** - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**M.G'. Ergasheva -** tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**
**O.Karimov,**
**U.Malikova,**
**B. Mashrabova.**

---------------------------------------------------------------------------------

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA


**Artikova M.B., Turaboyeva M.R.** Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida ..... 4
**Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 9
**Hasanov Sh.A.** Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida ..... 15
**Shabdullayeva L.O.** Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari ..... 20
**Agzamova N.O.** Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri ..... 30
**Matmusayev T.M.** Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi ..... 35
**Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.** Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi ..... 42
**Alimov J.A., Shermuhammedov M.** Zamonaviy sharoitda stol tennisi orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish ..... 47
**Axunov U.R.** Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash ..... 51
**Shabdullayeva L.O.** Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari ..... 55
**Karimova M.M.** Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni ..... 62
**Azimova Z.E., Otaboyeva Z.G'.** Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari ..... 67
**Hasanov Sh.A.** Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida ..... 71
**Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.** Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati ..... 78
**Maxmudov A.O.** Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fazoviy tafakkurini rivojlantirish ..... 84
**Abduraxmonova D.Sh.** Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari ..... 89
**Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.** Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari ..... 93
**Madaminova G.G.** Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari ..... 100
**Mashrabova B.N.** Irony and hyperbole in the dialogue of abdullajon: a stylistic analysis of cinematic language ..... 106
**Nishonov N.A.** O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari ..... 111
**Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.** Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati ..... 115
**Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.** Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish ..... 120
**Yoqubjonov N.G'.** Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish ..... 126
**Jo'rayeva D.I.** Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi ..... 130


## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR


**Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.** Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar ..... 135
**Raximova Z.X.** Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida ..... 142
**Uzaqova N.M.** Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari ..... 149
**Rahmatullayeva G.M., Oripova A.M.** Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash ..... 153
**Mutallibjonov U.I.** Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni ..... 157


## ANIQ VA TABIIY FANLAR


**Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.** Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakillantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 162
**Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.** Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий ..... 169
**Umarov A.V.** Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari ..... 173
**Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.** Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты ..... 179
**Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.** Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты ..... 183
**Mamadaliyev B.K.** Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish ..... 187
**Jamoldinova D.A.** Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi ..... 192
**Ablazova K.S.** Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi ..... 196

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi, 2026, 2-son
https://eduservis.uz/
ISSN 2181-4309

PEDAGOGIKA

UO'K: 371

# KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALAR JAMOASIDA HAMKORLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

***Azimova Ziyoda Ergashevna***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
***Otaboyeva Zulfiya G'ofurovna***
*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya.**
*Ushbu maqola talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini tarkib toptirish vositasi sifatida klasterli yondashuv asosida hamkorlik imkoniyatlarini o'rganish orqali ta'lim tizimida talabalararo hamkorlik madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy o'ziga xos texnologik jihatlari haqida mulohazalar yuritilgan.*
**Kalit so'zlar:**
*kompetensiya, hamkorlik, professional, kompleks, yondashuv, kompaniya.*

**Аннотация.**
*В данной статье рассматриваются теоретические и практические специфические технологические аспекты формирования культуры сотрудничества между студентами в системе образования на примере возможностей сотрудничества, основанных на кластерном подходе, как средства создания культуры сотрудничества в студенческом сообществе.*
**Ключевые слова:**
*компетентность, сотрудничество, профессионализм, комплексный подход, компания.*

**Abstract.**
*This article discusses the theoretical and practical specific technological aspects of the formation of a culture of cooperation between students in the education system using the example of cooperation opportunities based on the cluster approach as a means of creating a culture of cooperation in the student community.*
**Keywords:**
*Key words: competence, cooperation, professionalism, integrated approach, company.*

Talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda ishonch, tartiblilik, faollik, muloyimlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, mustaqillik, kamtarlik, mulohazalilik, mehnatsevarlik, halollik kabi shaxslik sifatlari o'z-o'zining ijobiy shaxsiy sifatlarini baholash, hamkorlik masofasi shkalasi, o'z-o'zini tahlil qilish xaritasi kabi maxsus metodikalar yordamida amalga oshirishga hizmat qiladi.

Talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda halollik vaksinasi eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga klasterli yondashuv ham o'ziga xos omila sifatida hizmat qiladi. Tadqiqot davomida nazariy izlanishlar olib borgan vaqtda biz "klasterli yondashuv" tushunchasini bugungi kundagi zamonaviy pedagogikada kamdan-kam tadqiq etilayotganini guvohi bo'ldik. Shunday ekan, talabalarning o'zaro munosabati va ularning o'zaro ta'sir etishi muammosi, zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari aks

ettirilgan ishlarda keng koʻlamda qoʻllaniladigan klasterli yondashuv taʼlim samaradorligini hamda talabalararo hamkorlik madaniyatini shakllanishiga salmoqli hissa qoʻshuvchi vosita sifatida qaralishi lozim degan fikrdamiz.

Zamonaviy pedagogikada klasterli yondashuvning oʻrni alohida tahsinga sazovor chunki, mazkur yondashuv turfa xil yoʻnalishlardagi fanlarning umumiylikdadagi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy usullaridan biri hisoblanib hamda zamonaviy talabalararo hamkorlik madaniyatini vujudga kelishining nazariy va metodik jihatdan oʻzagi sifatida eʼtirof etilishi lozim. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, mazkur yondashuvning oʻziga xosligi talabalarning samimiy raqobatbardoshligini oshirishda taʼlim tizimiga oʻzaro ijobiy munosabat, ilmiy, maʼnaviy-maʼrifiy, kasbiy faoliyat yuzasidan koʻprik vazifasini oʻtaydi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda "Klaster" (Tarmoqlar) metodi — oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga oʻrgatuvchi metod hisoblanadi. Bu metoddan asosan darsning yakuniy qismida yoki bob yuzasidan takrorlash oʻtkazilganda, umuman, avval egallagan bilimlarini takrorlash va mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin" degan ta'rif keltirilgan [1].

Pedagog olim D.Roʻziyevaning "Interfaol metodlar: moxiyati va qoʻllanilishi" nomli metodik qoʻllanmasida "Klaster" (g'uncha, toʻplam, bog'lam) metodi puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni oʻquvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qoʻllash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular oʻrtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi" -deya ta'riflaydi [2].

Akademik R.Djurayev umumiy tahriri ostida tuzilgan "Pedagogikadan atamalar lug'ati"da «Klaster» (tarmoqlar) metodi – 1) oʻquvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga oʻrgatuvchi metod. 2) klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli boʻlib, tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq oʻylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan usuldir " -deb izohlanadi [3].

"Moliyaviy-iqtisodiy tayanch soʻzlarga qiyosiy izohli lug'at"da esa, "Klaster yondashuv" - bu yangi boshqaruv tizimi boʻlib, alohida tarmoq yoki hududning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan davlatning ustuvor siyosati hisoblanadi" [ 4] deb ta'riflanadi.

Klaster yondashuvning nazariy asoslari XIX asr oxirlarida A.Marshall qarashlarida aks etgan. Qolaversa, klaster tushunchasi 1980-yillarda Garvard universiteti professori M.Porterning qarashlarida ham oʻrin olgan [5].

I.Ignatova oʻquv klasteri umumiy strategik maqsadga erishish uchun muvofiqlashtirilgan boʻlinmalar yig'indisi ekanligini ta'kidlaydi: "Klasterda barcha ishtirokchilar bir-birini qoʻllab-quvvatlaydi. Yaqinlik, ichki aloqalar, doimiy shaxsiy aloqalarning mavjudligi va umumiy oʻzaro taʼsir klasterlar ichida muloqot va bilimlarni

uzatishni osonlashtiradi". Shamovaning fikricha, "Klaster raqobatdosh ustunlikka erishish yoʻlida manfaatdor tomonlarning saʼy-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shaklidir. Taʼlimni rivojlantirishga klaster yondashuvini amalga oshirish, olimning fikricha, barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida pastdan amalga oshiriladigan muammo ustida ishlash jarayonida klaster subʼyektlarining oʻzaro va oʻz-oʻzini rivojlantirishini nazarda tutadi. bu alohida ishtirokchilarning ham, umuman klasterning ham oʻziga xos afzalliklarini oshiradi" [6].

Oliy taʼlim tizimining talabalar jamoasida taʼlim klasterlarini ishlab chiqish yuzasidan treninglarni tashkil etish va amalga oshirishda biz uchun taʼlimni yanada rivojlantirish konsepsiyasi muallifi AQShlik olim Jozef Renzullining quyidagi fikri asos boʻla oladi. Olim AQShning koʻplab oliy taʼlim muassasalari asosida talabalarni samarali faoliyatga kirishish imkoniyatini tadqiq etib, nazariy jihatdan asoslab bergan va amaliy faoliyatda sinovdan oʻtkazgan. Klaster tushunchasini "Maqsadli auditoriya uchun muhim boʻlgan mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun maxsus tashkil etilgan laboratoriyalar oʻquv guruhlari ijodiy ustaxonalarining amaliyotga yoʻnaltirilgan faoliyati." [6. 336-b.] -deya izohlaydi.

D.Renzulli klaster faoliyatini tashkil etish va uni amalga oshirishda uzluksiz taʼlimning barcha bosqichlarini uzviyligini aniqlashda deduktiv yoki didaktik yondoshuvlardan to ikkinchi tomondan esa, induktiv yoki konstruktiv yondoshuvlargacha davom etishini taʼkidlaydi. Taʼlim jarayonida oʻqitish modellari yuqori darajada muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Doimiy bir xillikdagi oʻquv dasturi ham asosiy yondashuvni, ham uzluksizlikning ikki tomonlarini hamda ular oʻrtasidagi yakdil nazariyalarni umumlashtirgan maqsadga yoʻnaltirilgan taʼlimni nazarda tutishi lozim.

2.1-jadval.

**Taʼlimning deduktiv va induktiv modellarining komparativ tavsifi**:

| Taʼlimning deduktiv modeli | Taʼlimning induktiv modeli |
|---|---|
| Oliy taʼlim muassasalari uchun oʻquv adabiyoti uchun oʻquv dasturi va DTS ishlab chiquvchilarning yondashuvidan kelib chiqib, muhim deb hisoblangan bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish maqsadi tashqi taʼsir natijasi hisoblanadi: uning ahamiyati, mustahkamligi va kelgusida nazariy va amaliy foydalanish uchun samaradaorligi, juda ham kichik boʻlib, maʼlumotlarni yodlash talaba uchun uning maʼnosini individuallashtiruvchi tashqi vaziyatlarda yuzaga keladi. | Axborot mazmuni, jarayon koʻnikma va malakalarini bilish, amalga oshirish zaruriyati talablariga asoslanib, har doim mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan va maʼlum bir guruh ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishni amalga oshirishdagi ijodiy faoliyat orqali tadqiqot olib borish, bilim,koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish jarayoni. |
| Talabaning roli haqida cheklangan tushunchaga asoslangan holda qiziqishlar, oʻrganish uslublaridagi oʻzgarishlarga adaptatsiya qiyin kechadi. Talaba bu - | Talabalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, kasbiy faoliyatida emas, balki aynan hozirgi vaqtda mavjud boʻlgan dolzarb |

| | |
|---|---|
| tadqiqotchi emas, bor yo‘g‘i vazifani bajarayotgan o‘rganuvchi shaxsdir. | mavzu yoki muammoni individuallashtirishni tashkil etish. |
| Sinf-dars tizimi (sinflarda, bir-biridan ajratilgan fanlarni, mavzularni o‘qitishda amalga oshiriladigan dars jadvali, avvaldan belgilab qo‘yilgan ma’lumotlar, o‘tkiziladigan nazorat ishlar, testlar, mustaqil ishlar bosqichdan bosqichga o‘tish uchun taraqqiyotni baholash tizimi. | OTM sharoitidan tashqari ta’lim muassasalari, teatrlar, muzeylar, kino studiyalar, biznes ofislari, xizmat ko‘rsatish agentliklari va ishlab chiqarish xizmatlarini sahnalashtirish kabi darsdan tashqari tadbirlarni tahlil qilish. |

Nazariy izlanishlar jarayonida dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobatbardoshligiga zamin yaratuvchi usul sifatida klasterlash g‘oyasi uzoq yillar davomida dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarida amaliy ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
2. Ruziyeva D., Usmonboyeva M., Xolikova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. - Toshkent: Nizomiy. nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 36 bet.
3. Djuraev R.X, Tolipov O‘.Q, Safarova R.G’, To‘raqulov X.O, Inoyatova M.E, Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug’ati. Toshkent – 2008. 36-bet.
4. Шамова Т. И. Кластерный подход к развитию образователных систем. Взаимодействие образователных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: материалы X Международного образователного форума: в 2 ч. / отв. ред. Т. М. Давыденко, Т. И. Шамова. - Белгород, 2006. - Ч. 1-С. 24-29.
5. Иванова С.П. Учитель XXI века: ноопсихологический подход к анализу профессионално-личностной готовности к педагогической деятелности Псков: ИГПИ им. С. М. Кирова, 2002. – 29-37-38-124 с.
6. Рензулли Дж.С., М.Джентри, С.М.Рейс. Обогащающее обучение: путеводител по практико-ориентированному, основанному на потребностях студентов обучению. Владивосток: ВГУЕС, 2006 -19-21-336 с.

